

QADIMGI MISRDA ILK DEHQONCHILIKNING VUJUDGA KELISHI

SHDPI TARIX KAFEDRASI O'QITUVCHISI **Bobojonov Behruz**

SHDPI 2-KURS TALABASI **Otamurodov Doniyorbek**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Usmonova Yulduz**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Do'Smatova Barno**

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada misr tarixi tabiiy sharoiti aholisi haqida malumotlar bor misr tarixi ham hozirgi vaqtda olimlarimiz tomonidan yetarlicha organilmoqda ushbu maqola misrni va dehqonchiligini umuman olganda misrni har tomonlama organishga yordam beradi umuman olganda bu maqola misr tarixini organishga harakat qilindi

Kalit so'zlar: Sulolalar, misr, nil daryosi, sugorish tizimi, ekin turlari, suv toshqinlari, fayum vohasi, hosil aylanishi, shudgor, qishloq xo'jalik asboblari.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается история Египта, его природные условия и население. Также приводятся данные о сельском хозяйстве и орошении, что недостаточно изучено нашими учеными на сегодняшний день. Эта статья помогает исследовать Египет с разных сторон, в общем, она направлена на изучение истории Египта.

Ключевые слова: династии, Египет, река Нил, ирригационная система, виды культур, водохранилища, Файюмский оазис, севооборот, пашня, сельскохозяйственные орудия.

ANNOTATION: This article provides information about the history of Egypt, its natural conditions, and its population. It also discusses the history of agriculture and irrigation in Egypt, which, to this day, has not been sufficiently studied by our scholars. This article aims to assist in comprehensively studying Egypt and primarily focuses on exploring its history.

Keywords: Dynasties, Egypt, Nile River, irrigation system, crop types, water reservoirs, Fayum oasis, crop rotation, tillage, agricultural tools.

Kirish: Misrda odamlar paleolit davridan boshlab yashaganlar. Miloddan avvalgi 10—6ming yillikda Nil atrofidagi savannalarda tarqoq yashagan qabilalar terimchilik, ovchilik, keyinroq esa baliq ovlash bilan shug'ullanishgan. Ular orasida kad, som xalqlariga mansub qabilalar, barbarlar va kushitlar bo'lib, ularning aralashuvidan miloddan avvalgi 4 ming yillikda Misr xalqi vujudga kelgan. Aholi nufuzining ortishi chorvachilik va dehqonchilikka o'tishni tezlashtirgan, bu esa hududiy jamoalarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Dehqonchilik qilish uchun kanallar, to'g'onlar qurish zaruriyati tug'ilgan, buning uchun esa o'zaro urushlarda asir tushgan qullar mehnatidan foydalanilgan. Natijada jamoada ijtimoiy tabaqalanish ro'y berib, urug' zodagonlari ajralib chiqqan, qabila sardorlari podshohchalarga aylangan. Bir qancha mayda quldorlik davlatlar vujudga kelgan. Keyinchalik ular o'rtasidagi kurash natijasida, shimolida Quyi Misr, janubida Yuqori Misr podshohliklari tuzilgan. Miloddan avvalgi taxminan 3ming yillikda ikkala podshohlik birlashib, yagona davlat barpo bo'lgan. Misrning keyingi tarixi 5 asosiy davrga bo'linadi: Ilk podshohlik (miloddan avvalgi taxminan 3000—2800), Qadimgi podshohlik (miloddan avvalgi taxminan 2800—2250), O'rta podshohlik (miloddan avvalgi taxminan 2050—1700), Yangi podshohlik (miloddan avvalgi 1580—1070), So'nggi (Liviya-Sais va Eron) davr (miloddan avvalgi taxminan 1070—332). Ilk podshohlik davri sug'orish tarmoqlarining rivojlanishi, tosh va mis qurollarining mukammallashuvi, kulolchilik

charxining paydo bo'lishi, ayirboshlash savdosining taraqqiy etishi bilan harakterlidir. Bu davrda davlat apparati va unga xizmat qiluvchi amaldorlar — kotiblar tabaqasi shakllangan, ma'muriy okruglar — nomlar tashkil topib, ularni noma rxi ar boshqargan, muntazam ravishda bosqinchilik yurishlari uyushtirilib turilgan, jumladan, jan.ga — Kush (Nubiya)ga, shim.-g'arbga — liviyaliklarga va Sinay yarim oroldagi badaviylarga qarshi (bu yerda mis konlari bor edi) yurishlar qilingan. Qadimgi podsholik davrida qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo va qurilish rivojlanishda davom etgan. Xususiy yer egaligi paydo bo'lgan. Oliy mansabdor — tchati (vazir) bosh bo'lgan davlat apparati mustahkamlangan. Fir'avnlr, shuningdek, bosh kohin ham bo'lib, barcha yer va fuqarolarning egasi hisoblangan. Jamoa a'zolari va qisman kelgindilar (asosan, Kush aholisi)dan tuzilgan muntazam qo'shin barpo qilingan. Ilohiylashtirilgan fir'avnlarning mutlaq hokimiyati g'oyasi mahobatli maqbaralar — ehromlar qurilishida mujassamlantirilgan. Bu ayniqsa III —IV sulolalar davrida (Snofru, Xeops, Xefren, Mikerin ehromlari) avj olgan. Ularni bunyod etishda qul va dehqonlar mehnatidan keng foydalanilgan.[1]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI: ushbu maqolani yoritihda misrning aholisiga hamda misrning markazlik faoliyatiga olib keladi Abdujabor Kabirov Qadimgi sharq tarixi Rajabov Ravshan Jahon tarixi bunda asosan qadimgi sharq tarixi haqida malumotlar bor Boynazarov qadimgi dunyo tarixi bu kitoblarda qadimgi misr haqida malumotlar mavjud har tomonlama organib tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Manbashunoslik, tahliliy taqqoslash, qiyoslash matnshunoslik.

Misr — insoniyat tamadduni (sivilizatsiyasi)ning ilk makonlaridan biri (qarang Misr, Qadimgi Misr). 3—4-asrlarda Misr Rim imperiyasi tarkibiga kirgan. Rim imperiyasi yemirilgach (395), Vizantiyaning bir viloyati bo'lib qoldi. VII-asr boshlarida butun Misr aholisi Vizantiyaning rasmiy pravoslav cherkoviga qarshi bo'lgan xristianlarning monofisit mazhabini qabul qildi. Aholi kopt (qibt) tilida so'zlashar edi. Shu davrda Misrni sostoniyalar, 639—642 yillarda esa arablar bosib oldi va mamlakatda islom dini tarqala boshladi. Keyinchalik tuluniylar (868—905), abbosiylar (905—935), ixshidiylar (935—969) sulolalari hukmronlik qildi. Fotimiylar davri (969—1171)da Falastin, Shom (Suriya) va G'arbiy Arabiston Misrga qaram bo'lgan. 1113-yil salib yurishi qatnashchilari Misrga bostirib kirdi. Shimoliy Suriya va Iroqdagi saljuqiylar noibi Nuriddin Mahmud ibn Zangi (1146—74) salibchilarga qarshi kurashda Fotimiy xalifa Adid (1160—71) ga katta yordam berdi. Buning evaziga xalifa uni vazir qilib tayinladi (1169). 1171-yil ayyubiylar sulolasi (1171—1250)ning asoschisi Salohiddin taxtga chiqdi. 1174-yil esa u sulton nomini oldi. 1187-yilda Suriya va Misr harbiy kuchlari birlashib, salibchilarga qaqshatqich zarba berdi va Falastin bilan Suriyani ulardan ozod qildi. Misrda XIII-asr yarmigacha Ayyubiylar, XIV—XV-asrlarda mamluklar hukmronlik qildi.

1517-yilda turk sultoni Salim I Misrni egallab, uni Usmonli turk davlati tarkibiga qo'shib oldi. XVIII-asr 2-yarmidan Usmonli turk saltanati tanazzulga uchray boshladi. Bundan foydalangan mamluk beklaridan Alibey mustaqil davlat tuzishga erishdi (1769), Alibeyning vafotidan so'ng taxt uchun kurash kuchaydi. XVIII-asr oxiri — XIX-asr boshlarida Fransiya va Angliya Misrni bosib olishga harakat qildilar. 1798-yilda Misrni Napoleon armiyasi egalladi. 1801-yilda ingliz floti fransuz floti ustidan g'alabaga erishdi. 1805-yilda hokimiyat Muhammad Ali posho qo'liga o'tdi. Muhammad Ali Misrni kuchli, mustaqil davlatga aylantirish maqsadida mamluk beylariga qarshi kurash olib bordi. Mamlakat iqtisodiyotining asosi bo'lgan qishloq xo'jaligini rivojlantirdi. Bu davrda birinchi movut, to'qimachilik fabikalari, metallurgiya, qand, oyna

zavodlari qurildi. Yevropa usulidagi maktablar ochildi, yoshlar g'arb davlatlariga o'qishga yuborildi. Fransuz harbiy maslahatchilari yordamida armiya qayta tuzildi. Mahalliy aholi armiyaga olina boshladi (ilgari faqat yollanma askarlar bo'lar edi). Muhammad Ali Suriya, Falastin va Arabiston yarim orolning bir kismini bosib oldi (1831—33). Turkiyaga qaramlikdan qutulish uchun 1831-yilda unga qarshi urush ochib, turk armiyasini mag'lubiyatga uchratdi. Lekin Angliyaning ikkinchi Turkiya-Misir urushi (1839—40)ga aralashuvi natijasida Misr armiyasi yengildi. Bundan tashqari, Angliya 1838-yilgi ingliz-turk savdo bitimidagi shartlarni Misrga maj-buran qabul qildirdi. Bu esa mamlakatga ingliz mollari ko'plab kirib kelishiga yo'l ochib berdi. Suvaysh kanali ishga tushirilishi (1869) bilan Angliya va Fransiya Misrda zo'r berib o'z hukmronligini o'rnatishga urindi. 1882-yil inglizlar armiyasi Misrni egallab oldi va xalq qo'zg'olonini sha-fqatsiz bostirdi. Mamlakatda mustamlaka tartibi o'rnatildi. Inglizlar bank va moliya ishlarini, irrigatsiya qurilishlari, aloqa yo'llarini o'z qo'llariga oldi. Misr faqat paxta yetishtiradigan davlatga aylanib qoldi. 20-asr boshlarida Mustafo Komil (1874— 1908) rahbarligida milliy ozodlik harakati avj oldi. Ammo mustamlakachilar xalq harakatini bostirdilar. 1914-yilda Misrda Britaniya protektorati o'rnatildi.[2]

QADIMGI MISRDA ILK DEHQONCHILIK. Dehqonchilik qilish uchun kanallar, to'g'onlar qurish zaruriyati tug'ilgan, buning uchun esa o'zaro urushlarda asir tushgan qullar mehnatidan foydalanilgan. Natijada jamoada ijtimoiy tabaqalanish ro'y berib, urug' zodagonlari ajralib chiqqan, qabila sardorlari podshohchalarga aylangan. Bir qancha mayda quldorlik davlatlar vujudga kelgan. Keyinchalik ular o'rtasidagi kurash natijasida, shimolida Quyi Misr, janubida Yuqori Misr podsholiklari tuzilgan. Miloddan avvalgi taxminan 3ming yillikda ikkala podsholik birlashib, yagona davlat barpo bo'lgan. Misrning key-ingi tarixi 5 asosiy davrga bo'linadi: Ilk podsholik (miloddan avvalgi taxminan 3000— 2800), Qadimgi podsholik (miloddan avvalgi taxminan 2800—2250), O'rta podsholik (miloddan avvalgi taxminan 2050— 1700), Yangi podsholik (miloddan avvalgi 1580—1070), So'nggi (Liviya-Sais va Eron) davr (miloddan avvalgi taxminan 1070—332).Mamlakatdan birgina Nil daryosi o'tadi. Uning suvi to'g'onlar bilan tartibga solingan. Baland Asvon to'g'oni qurilgach, mamlakat janubda Nosir nomidagi katta suv ombori vujudga keldi. Vohalarda sizot suvlardan keng foydalaniladi. Mayda ko'l ko'p. Nil deltasida kanallardan sug'orishda foydalaniladi. Ayrim kanallarda kema qatnaydi.[3]

XULOSA VA TAKLIFLAR:xulosa ornida shuni aytish joizkiQadimgi Misrda ilk dehqonchilik Nil daryosi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu hududda yerning unumdorligi va suv resurslaridan samarali foydalanishga asoslangan edi. Nilning yillik toshqinlari qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan hosildor tuproqni olib kelgan va suv manbai yaratgan. Shu tufayli Misr aholisi Nil vodiysida dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Ilk dehqonchilik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Sug'orish tizimlari: Nil suvini ekin maydonlariga yetkazish uchun kanallar va ariqchalar qurildi.
2. Asosiy ekinlar: Bug'doy, arpa, zig'ir va sabzavotlar ekilib, oziq-ovqat va to'qimachilik xom ashyosi yetishtirildi.
3. Mehnat taqsimoti: Dehqonchilik asosan qishloq aholisining jamoaviy mehnati orqali amalga oshirilgan. Bu jarayon fir'avn yoki ibodatxona yerlariga xizmat ko'rsatgan.
4. Qishloq xo'jaligi asboblari: Sodda asbob-uskunalar, masalan, yog'och omoch, qo'l ketmonlari va tosh o'roq ishlatilgan.

5. Taomil va iqlim: Nilning toshqini, quruq iqlim va mavsumiy ishlar (ekish, hosil yig'ish) dehqonchilikning asosiy ko'rsatkichlari bo'lgan.

Misrda ilk dehqonchilik Nil vodiysining tabiiy imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga asoslangan bo'lib, bu hududni boy qishloq xo'jaligi madaniyatiga aylantirdi. Nilning toshqini va sug'orish tizimlari tufayli qadimgi Misrda dehqonchilik mamlakat iqtisodiy va madaniy rivojlanishining asosiy omili bo'ldi. Bu tamaddunning asosi bo'lgan oziq-ovqat zaxirasini ta'minlash va jamiyatni mustahkamlashda katta rol o'ynadi.

Qadimgi Misrda dehqonchilikka oid topilgan artefaktlar (asbob-uskunalar, yozuvlar, rasmlar) haqida misollar keltirish. Ushbu topilmalar dehqonchilik madaniyatini qanday aks ettirishi haqida mulohaza qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ABDUJABBOR KABIROV. QADIMGI SHARQ TARIXI TOSHKENT 2016
2. RAJABOV RAVSHAN JAHON TARIXI 1 QISM .RAJABOV RAVSHAN TOSHKENT YANGI ASR AVLADI.
3. F.BOYNAZAROV QADIMGI DUNYO TARIXI.TOSHKENT 2002.
4. VSEVOLOD AVDIYEV QADIMGI SHARQ TARIXI TOSHKENT 1964.
5. ANATOLIY SAGDULLAYEV QADIMGI SHARQ TARIXI.
6. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES, 2(9), 57-62.
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРИШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. Oriental Journal of Social Sciences, 2(2), 69-72.
9. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
10. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(1), 398-401.
11. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG'IDAN TOPILGAN YODGORLIKLAR TARIXI (I-XV ASRLAR). JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(9), 33-35.
12. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA "TADBIRKOR AYOL" UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. TADQIQOTLAR. UZ, 35(1), 111-113.
13. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. YANGI O 'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
14. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. YANGI O 'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).

15. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
16. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
17. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
18. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
19. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
20. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).